

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	
О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	249
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ	258
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI	263
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ОБЪЁМА ИНВЕСТИЦИЙ К УРОВНЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ РЫНКОВ	270
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	277
Samandarov Jamshidbek Davronbekovich	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Samandarov Jamshidbek Davronbekovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: samandarovjamshid91@gmail.com

Tel.: +998 91 917 23 22

ORCID: 0009-0004-0815-9195

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda raqamli iqtisodiyotning strategik o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot Xorazm viloyati misolida olib borilib, hududda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli infratuzilma, elektron hukumat va raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shirish va bandlikni oshirish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, mintaqaviy raqamli iqtisodiyot salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, barqaror mintaqaviy rivojlanish, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, innovatsion iqtisodiyot.

Abstract: In the context of digital transformation, this academic paper offers a thorough examination of the strategic role of the digital economy in guaranteeing the sustainable growth of the local economy. The study evaluated the potential for boosting employment and economic growth in the Khorezm region through the development of digital infrastructure, e-government, digital entrepreneurship, and information and communication technology. The study’s findings led to the development of practical and scientific recommendations and conclusions aimed at enhancing the potential of the local digital economy.

Keywords: digital transformation, digital economy, sustainable regional development, digital infrastructure, e-government, innovative economy.

Аннотация: Данная научная статья представляет собой углубленный анализ стратегической роли цифровой экономики в обеспечении устойчивого развития региональной экономики в контексте цифровой трансформации. Исследование проводилось на примере Хорезмской области, оценивались возможности повышения экономического роста и занятости за счет развития информационно-коммуникационных технологий, цифровой инфраструктуры, электронного правительства и цифрового предпринимательства в регионе. На основе результатов исследования были разработаны научно-практические выводы и предложения по укреплению потенциала региональной цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровая экономика, устойчивое региональное развитие, цифровая инфраструктура, электронное правительство, инновационная экономика.

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o‘shirishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish, bandlikni kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mintaqalar darajasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Xorazm viloyati iqtisodiyoti agrar soha bilan ajralib turadi, turizm va xizmatlar salohiyati yuqori. Shu bois hududda raqamli iqtisodiyot salohiyatini oshirish viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot — bu iqtisodiy subyektlar faoliyatida raqamli ma’lumotlar, axborot tizimlari va zamonaviy texnologiyalar asosida qiymat yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. U an’anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda, tezkorlik, moslashuvchanlik va shaffoflik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy funksional jihatlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

- tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish;
- raqamli platformalar orqali bozor mexanizmlarini takomillashtirish;
- ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi texnologik yechimlarni kengaytirish.

Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi barqaror ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda. Ushbu jarayon, avvalo, hududda raqamli infratuzilmaning kengayishi, davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tkazilishi hamda iqtisodiy tarmoqlarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan izohlanadi. Natijada viloyat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshib, yangi iqtisodiy imkoniyatlar shakllanmoqda.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi hududiy raqamli iqtisodiyotning asosiy tayanch omillaridan biri hisoblanadi. Xorazm viloyatida internet va mobil aloqa qamrovining kengayib borayotgani aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini sezilarli oshirmoqda. Xususan, internet qamrovi 2021-yildagi 76,6 foizdan 2025-yilga kelib 94 foizga yetishi prognoz qilinayotgani hududda raqamli integratsiya jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi. Bu esa nafaqat aholining raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki iqtisodiy faoliyatni ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi ham muhim transformatsion omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Elektron hukumat platformalari, xususan, my.gov.uz orqali soliq, kadastr va boshqa davlat xizmatlarining onlayn shaklga o'tkazilishi byurokratik to'siqlarni qisqartirib, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirmoqda. Bu jarayon fuqarolar va biznes subyektlari uchun vaqt va xarajatlarni tejash imkonini yaratib, iqtisodiy faollikni rag'batlantirmoqda.

Viloyatda hududiy IT-markazlar va raqamli o'quv markazlari faoliyatining kengayishi inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu markazlar orqali yoshlar zamonaviy IT-ko'nikmalarni egallab, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirmoqda. Natijada ICT sohasida band aholining ulushi 2021-yildagi 2,1 foizdan 2025-yilga kelib 3,6 foizga yetishi kutilmoqda, bu esa raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hududiy rivojlanishning yangi harakatlantiruvchi omiliga aylanmoqda. Qishloq xo'jaligida raqamli monitoring tizimlari, aqlli sug'orish texnologiyalari va agroplatformalarning qo'llanilishi resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, tomchilatib sug'orish va sensorli monitoring tizimlari suv resurslarini tejash bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali xizmatlar sifati va qamrovi kengaymoqda. Onlayn bronlash tizimlari, virtual ekskursiyalar hamda raqamli marketing vositalari hududning turistik jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa Xorazm viloyatining tarixiy-madaniy salohiyatini global miqyosda targ'ib qilish imkonini yaratadi.

Kichik biznes va xizmatlar sektorida esa elektron tijorat, onlayn to'lov tizimlari va raqamli platformalar tadbirkorlik faoliyatini yanada soddalashtirmoqda. Raqamli xizmatlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2021-yildagi 4,2 foizdan 2025-yilda 9,5 foizga yetishi prognozi ushbu sektorning jadal rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Bu holat raqamli iqtisodiyotning hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi infratuzilma, inson kapitali va iqtisodiy tarmoqlarda texnologik transformatsiyaning uyg'unlashuvi asosida shakllanmoqda. Ushbu jarayon hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi zamonaviy iqtisodiy nazariyada eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, uning mazmuni va ahamiyati turli ilmiy maktablar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va optimallashtirishga qaratilgan yangi iqtisodiy tizim sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida baholanadi. Masalan, World Bank tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar bozorini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishda asosiy omil sifatida qayd etiladi (World Bank, 2020). Shu bilan birga, OECD hisobotlarida raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi, biznes jarayonlari va jamiyat rivojiga tizimli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan (OECD, 2021).

Raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda ko'plab olimlar muhim hissa qo'shgan. Jumladan, Nicholas Negroponte raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini ilk bor ilmiy muomalaga kiritib, iqtisodiy faoliyatning "atomlardan bitlarga o'tishi" jarayonini asoslab bergan (Negroponte, 1995). Shuningdek, Don Tapscott o'zining tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning biznes va jamiyatga ta'sirini chuqur tahlil qilib, uni yangi iqtisodiy paradigma



sifatida baholaydi (Tapscott, 2014).

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishga ta'siri alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, hududiy iqtisodiyot doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Bu borada United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) hisobotlarida raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, "raqamli tafovut" muammosini ham keltirib chiqarishi ta'kidlanadi (UNCTAD, 2019).

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internet qamrovi va keng polosali aloqa tizimlarining rivojlanishi hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi, innovatsiyalarni tezlashtiradi va yangi biznes modellarini shakllantiradi (World Bank, 2020). Shu bilan birga, raqamli infratuzilma rivojlanishi davlat xizmatlarini optimallashtirish va shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi (OECD, 2021).

O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot rivojlanishi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, mamlakatda elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va AKT infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu jarayonlar hududiy darajada, jumladan, Xorazm viloyatida ham raqamli transformatsiyani jadallashtirmoqda. Milliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy adabiyotlar alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aqlli qishloq xo'jaligi (smart agriculture) texnologiyalari, jumladan, sensorlar, sun'iy intellekt va raqamli monitoring tizimlari hosildorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi (FAO, 2021). Bu esa Xorazm viloyati kabi agrar hududlar uchun ayniqsa dolzarbdir.

Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlarda esa onlayn platformalar, virtual xizmatlar va raqamli marketing vositalari turistik oqimni oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Xususan, raqamli platformalar orqali xizmatlar ko'rsatish sifati oshib, turizm bozorining geografiyasi kengayadi (UNWTO, 2022).

Kichik biznes va xizmatlar sektorida raqamli transformatsiya masalalari ham keng o'rganilgan. Ilmiy tadqiqotlar elektron tijorat va fintech xizmatlari kichik biznes subyektlarining bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi. Bu esa raqobat muhitini kuchaytirib, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (OECD, 2021).

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Jumladan, raqamli tafovut, kadrlar yetishmasligi, infratuzilma cheklovlar va kiberxavfsizlik muammolari ushbu jarayonni sekinlashtiruvchi omillar sifatida qayd etiladi (UNCTAD, 2019). Shu sababli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot hududiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, uning samarali rivojlanishi infratuzilma, inson kapitali va innovatsion siyosatning uyg'unlashuviga bog'liq. Xorazm viloyatining raqamli iqtisodiyot salohiyatini o'rganish ham aynan ushbu nazariy va amaliy yondashuvlar asosida olib borilishi lozim. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim institutsional omili sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki va BMT tahliliy hisobotlarida raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sishning inklyuziv modelini shakllantirishi qayd etilgan. OECD tadqiqotlarida esa raqamli transformatsiyaning hududiy raqobatbardoshlikka ta'siri empirik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, elektron hukumat tizimi va raqamli xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Ushbu maqola mavjud ishlardan farqli ravishda, masalaga mintaqaviy yondashuv asosida baho berishi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining raqamli iqtisodiyot salohiyatini baholash ko'p omilli va murakkab jarayon sifatida qaralib, unga mos ravishda kompleks metodologik yondashuv tanlandi. Tadqiqot dizayni raqamli iqtisodiyotning tarkibiy elementlari — infratuzilma, iqtisodiy faoliyat, inson kapitali va institutsional muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Metodologik asos sifatida aralash (mixed-methods) yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv miqdoriy va sifat tahlillarini uyg'unlashtirish orqali tadqiqot obyektini har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Miqdoriy tahlil hududdagi asosiy statistik ko'rsatkichlar dinamikasini aniqlashga xizmat qilsa, sifat tahlili raqamli transformatsiyaning institutsional va ijtimoiy jihatlarini ochib beradi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tizimli va hududiy yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv orqali raqamli iqtisodiyot yagona integral tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning elementlari o'rtasidagi funksional

bog'liqliklar tahlil qilindi. Hududiy yondashuv esa Xorazm viloyatining iqtisodiy-geografik xususiyatlarini, resurs salohiyatini va rivojlanish darajasini hisobga olish imkonini berdi. Shu bilan birga, institutsional yondashuv asosida davlat siyosati, raqamli infratuzilma va normativ-huquqiy muhitning ta'siri baholandi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar bazasi asosan ikkilamchi manbalarga tayandi. Jumladan, milliy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar, xususan, World Bank, OECD hamda UNCTAD hisobotlari, shuningdek, ilmiy maqolalar va rasmiy hujjatlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar 2021–2025-yillar oralig'ini qamrab olib, vaqt kesimidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida internet qamrovi, raqamli xizmatlar ulushi va ICT bandligi kabi ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari va dinamikasi aniqlandi. Trend tahlili asosida ushbu ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha rivojlanish yo'nalishlari baholanib, prognoz xulosalar shakllantirildi. Taqqoslash usuli orqali hududiy ko'rsatkichlar boshqa hududlar va xalqaro tajribalar bilan solishtirildi, bu esa Xorazm viloyatining nisbiy raqamli rivojlanish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, korrelyatsion tahlil qo'llanilib, raqamli infratuzilma darajasi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilindi. Ushbu yondashuv raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini empirik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Ekspert baholash usuli orqali esa hududiy mutaxassislar fikrlari umumlashtirilib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va muammolari aniqlashtirildi.


Tadqiqotda baholash mezonlari sifatida kompleks indikatorlar tizimi shakllantirildi. Ushbu tizim infratuzilma (internet qamrovi), iqtisodiy (raqamli xizmatlar ulushi), ijtimoiy (ICT bandligi) va institutsional (elektron xizmatlar darajasi) ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Mazkur indikatorlar orqali hududning raqamli iqtisodiyot salohiyati kompleks va tizimli baholandi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash, uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholash hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini beruvchi ilmiy asoslangan yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida raqamli infratuzilmaning rivojlanishi izchil ijobiy dinamikaga ega. Xususan, internet qamrovi 2021-yildagi 76,6 foizdan 2025-yilda 94 foizga yetishi hududda raqamli xizmatlar uchun asosiy platforma shakllanganini anglatadi. Bu holat raqamli iqtisodiyotning boshlang'ich sharti, ya'ni axborotga kirish imkoniyatining kengayganini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, internet qamrovining oshishi bilan birga, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi ham sezilarli ravishda ortgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotda "infratuzilma → foydalanish → iqtisodiy samaradorlik" zanjirining shakllanayotganini ko'rsatadi.



1-rasm. Xorazm viloyatida internet qamrovi va raqamli xizmatlar ulushi o'rtasidagi bog'liqlik¹

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Statistik tahlil natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlarning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi 2021-yildagi 4,2 foizdan 2025-yilda 9,5 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa qisqa muddat ichida qariyb 2,3 barobar o'sishni anglatadi.

Mazkur natija raqamli iqtisodiyotning Xorazm viloyatida mustaqil iqtisodiy sektor sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa:

- elektron tijorat platformalari;
- fintech xizmatlar;
- onlayn servislar

iqtisodiy o'sishning yangi harakatlantiruvchi omiliga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari ICT sohasida bandlik darajasining ham ijobiy o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. 2021-yilda 2,1 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2025-yilda 3,6 foizga yetishi kutilmoqda.

Bu jarayon quyidagi muhim xulosalarni beradi:

- raqamli iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratmoqda;
- yoshlar bandligi oshmoqda;
- IT sohasida inson kapitali shakllanmoqda.

Tadqiqotda raqamli infratuzilma va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun quyidagi soddalashtirilgan regressiya modeli taklif etildi:

$$Y = \alpha + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

Bu yerda:

- Y – raqamli xizmatlarning YHMdagi ulushi;
- X_1 – internet qamrovi darajasi;
- X_2 – ICT bandlik ulushi;
- X_3 – elektron xizmatlar rivojlanish darajasi;
- ε – tasodifiy xatolik.
- Modelning iqtisodiy talqini shuni ko'rsatadiki:
- internet qamrovi oshishi (X_1) raqamli iqtisodiyot hajmini bevosita kengaytiradi;
- ICT bandlik (X_2) innovatsion faoliyatni kuchaytiradi;

davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi (X_3) iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Korrelyatsion tahlil natijalari internet qamrovi va raqamli xizmatlar ulushi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa metodologiyada qo'llanilgan nazariy gipotezani tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyot rivojlanishi tizimli xarakterga ega bo'lib, quyidagi uch asosiy omil bilan belgilanadi:

1. Infratuzilma omili

Internet va mobil aloqa qamrovining kengayishi barcha boshqa jarayonlar uchun asos yaratadi.

2. Inson kapitali omili

ICT sohasida bandlikning o'sishi raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

3. Institutsional omil

Elektron davlat xizmatlari va raqamli platformalar iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham aniqlangan:

- hududiy raqamli tafovut mavjudligi;
- yuqori malakali IT mutaxassislar yetishmasligi;
- raqamli infratuzilmaning ayrim chekka hududlarda yetarli emasligi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyot shakllanish bosqichidan rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Raqamli infratuzilma, xizmatlar va bandlik ko'rsatkichlarining o'sishi hududning iqtisodiy transformatsiyasini tezlashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tkazilgan tahlillar Xorazm viloyatida raqamli infratuzilmaning bosqichma-bosqich rivojlanayotganini ko'rsatadi. Internet tarmog'i qamrovining kengayishi, elektron davlat xizmatlarining joriy etilishi va raqamli to'lov tizimlarining ommalashuvi iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. Xususan, raqamli xizmatlar xizmatlar sohasi o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda hamda yoshlar bandligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- raqamli kompetensiyalarni yanada oshirish zarurati;
- malakali IT kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish zarurati;
- qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani bosqichma-bosqich kengaytirish zarurati;
- innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji.

Rivojlanish yo'nalishlari

1. Malakali kadrlar tayyorlash — IT va raqamli xizmatlar bo'yicha ta'lim dasturlarini kengaytirish.

3. Raqamli infratuzilmani kengaytirish — qishloq hududlariga yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqani joriy etish.

4. Innovatsiyalarni moliyalashtirish — startaplar va raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun grant va kredit mexanizmlarini rivojlantirish.

5. Elektron hukumat tizimini takomillashtirish — my.gov.uz platformasini kengaytirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash.

Mahalliy va xalqaro tajriba almashuvi — OECD, Jahon banki va BMT hisobotlaridagi eng yaxshi amaliyotlarni mintaqaga moslashtirish.

Xulosa va takliflar

Xorazm viloyatida mintaqani barqaror rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning salohiyatini oshirish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy farovonlik va zamonaviy boshqaruv tizimlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyatdagi raqamli infratuzilma, internet qamrovi va elektron xizmatlar ko'lami jadal rivojlanmoqda, ammo ularni kengaytirish va sifatini oshirish mintaqaviy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xorazm viloyatida raqamli iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari — elektron savdo, moliya texnologiyalari, raqamli xizmatlar va aqlli boshqaruv tizimlari — mintaqaviy rivojlanish strategiyasining markaziy elementi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish, startap va innovatsion ekotizimlarni rag'batlantirish, shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish barqaror raqamli rivojlanishning muhim shartlari hisoblanadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyotning kengayishi viloyatda ish o'rinlarini yaratish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va mahalliy ishlab chiqarishni raqobatbardosh qilish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli strategik investitsiyalar, modernizatsiya va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali Xorazm viloyati barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida raqamli salohiyatidan maksimal darajada foydalanishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning kuchayishi nafaqat viloyat iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlarni ham qo'llab-quvvatlab, Xorazmni barqaror rivojlanayotgan mintaqaga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Xorazm viloyati hokimligi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid hisobotlar. — Urganch, 2021–2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi hududiy statistik ko'rsatkichlari.
4. O'zbekiston Respublikasi hududiy statistik ko'rsatkichlari. — Toshkent: Statistika agentligi, 2023.
5. World Bank. World Development Report 2016: Digital Dividends. — Washington, DC: World Bank, 2016.
6. World Bank. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. — Washington, DC: World Bank, 2020.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Measuring the Digital Economy: A New Perspective. — Paris: OECD Publishing, 2014.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). OECD Digital Economy Outlook 2020. — Paris: OECD Publishing, 2020.
9. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital Economy Report 2019: Value Creation and Capture: Implications for Developing Countries. — Geneva: United Nations, 2019.
10. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital Economy Report: Pacific Edition 2022. — Geneva: United Nations, 2022.
11. Negroponte N. Being Digital. — New York: Alfred A. Knopf, 1995.
12. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1995.
13. Trendov N.M., Varas S., Zeng M. Digital Technologies in Agriculture and Rural Areas: Status Report. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2019.
14. World Tourism Organization (UNWTO). Rethinking Tourism: From Crisis to Transformation. — Madrid: UNWTO, 2022.
15. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report 2020: Special Edition. — Geneva: World Economic Forum, 2020.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100